

**O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.35/30.12.2019.Isl/Tar/F.57.01 RAQAMLI ILMY KENGASH**

O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI

ALIJONOVA GULNOZAXON MUXAMMAD QIZI

**RIZOUDIN IBN FAXRIDDIN “KUTUBI SITTA VA MUALLIFLARI”
ASARINING MANBASHUNOSLIK TAHLILI**

24.00.01 – Islom tarixi va manbashunosligi

**TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

**Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Content of dissertation abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)
on historical sciences**

**Оглавление автореферата доктора философии (PhD) по историческим
наукам**

Alijonova Gulnozaxon Muxammad qizi

Rizouddin ibn Faxriddin "Kutubi sitta va mualliflari" asarining manbashunoslik
tahlili.....3

Alijonova Gulnozaxon Mukhammad kizi

Analysis of the source study of the work "Kutubi Sitta and its authors" by
Rezauddin ibn Fakhriddin.....23

Алижонова Гулнозахон Мухаммад кизи

Источниковедческий анализ произведения "Кутуби ситта и авторы"
Ризоуддина ибн Фахриддин.....43

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

List of published works

Список опубликованных работ47

**O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.35/30.12.2019.Isl/Tar/F.57.01 RAQAMLI ILMY KENGASH**

O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI

ALIJONOVA GULNOZAXON MUXAMMAD QIZI

**RIZOUDIN IBN FAXRIDDIN “KUTUBI SITTA VA MUALLIFLARI”
ASARINING MANBASHUNOSLIK TAHLILI**

24.00.01 – Islom tarixi va manbashunosligi

**TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.4.PhD/Tar824 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston xalqaro islom akademiyasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.iiu.uz) hamda "ZiyoNET" Axborot ta'lim portali (www.ziynet.uz)ga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Maxsudov Davron Rustamovich

tarix fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Agzamxodjayeov Saidakbar Saidovich

tarix fanlari doktori, professor

Mirzayev Nasriddin Muxritdinovich

tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston Milliy universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.35/30.12.2019.Isl/Tar/F.57.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil "___" avgust soat ___ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100011, Toshkent shahri, A.Qodiriy ko'chasi, 11-uy, Tel.: (99871) 2440056, Faks: (99871) 2440065, e-mail: info@iiu.uz.)

Dissertatsiya bilan O'zbekiston xalqaro islom akademiyasining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 136 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100011, Toshkent shahri, A.Qodiriy ko'chasi, 11-uy. Tel.: (99871) 2440056, Faks: (99871) 2440065, e-mail: info@iiu.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil "___" avgustda tarqatildi.
(2023-yil "18" iyuldagi № 07-raqamli reyestr bayonnomasi.)

I.I. Bekmirzayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi o'rinbosari, tarix fanlari doktori (DSc), professor

S.A. Rustamiy

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Z.M. Islomov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tarixida “Kutubi sitta” (الكتب الستة), “Sihohi sitta” (Olti ishonchli to‘plamlar) asarlari ko‘plab olimlarning diqqat e‘tiborini tortib kelgan. Ushbu “Olti to‘plam” Payg‘ambar (s.a.v)dan yetib kelgan xabarlarni jamlashdagi eng ishonchli manba ekanligi bilan ajralib turadi. XIX-XX asrlarda Rossiya imperiyasi keng tarqalgan hududlarda musulmon olimlari ushbu to‘plamlarga alohida e‘tibor qaratganlar. Muftiy Rizouddin ibn Faxriddin ham ushbu kitoblarni o‘ziga xos e‘tibor bilan o‘rganib, “Kutubi sitta va mualliflari” (كتب ستته و مؤلفرى) kitobini yozgan. Ushbu asar hadis ilmiga doir ilmiy muhitni ochib berishi va Movarounnahrndan yetishib chiqqan muhaddis olimlarning faoliyatiga alohida to‘xtalishi bilan katta ahamiyatga ega.

Dunyodagi ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarida hadishunoslik va muhaddislar faoliyatiga oid bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ushbu tadqiqotlarda hadis ilmi (علم الحديث), hadis usuli va tarixi, mashhur muhaddislar, sahih to‘plamlarga sharhlar, musnadlar tarixi, isnodlarning vujudga kelishi, Imom Buxoriyning roviylarni o‘rganishdagi shartlari, roviylar tarixi, hadislarning rivoyat shakllari, hadislarni o‘rganish usullari, mo‘jamlar tarixi, sahobalarning hadis o‘rgatishdagi metodi kabi mavzular o‘rganilgan. Mazkur sohadagi tadqiqotlarda Payg‘ambar (s.a.v)ning hadis o‘rgatish uslubi, hadis ilmining yuzaga kelish bosqichlari hamda sahobalarning hadislarni rivoyat qilish usullari ham alohida tadqiq qilingan.

Yangilayotgan O‘zbekistonda hadis sohasini yanada rivojlantirish maqsadida bir qator tarixiy ahamiyatga ega ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Movarounnahrlik muhaddislarning ilmiy merosini o‘rganish maqsadida Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi faoliyati yanada takomillashtirildi hamda Imom Termiziy xalqaro ilmiy tadqiqot markazi tashkil etildi. Samarqandda hadis maktabi o‘z ish faoliyatini boshladi. “Oltin silsila” hadis to‘plami loyihasi doirasida Imom Buxoriyning “Sahih Buxoriy” (صحيح البخارى), Imom Muslimning “Sahih Muslim” (صحيح مسلم), Abu Iso Termiziyning “Jomei Termiziy” (جامع الترمذى) va Abu Dovudning “Sunani Abu Dovud” (سنن ابى داود) to‘plamlari nashr etildi. E‘tiborli jihati yurtimiz muhaddislarining xorijda o‘rganilishiga ham e‘tibor qaratilmoqda. Bu borada, Rizouddin ibn Faxriddin “Kutubi sitta va mualliflari” asari hadis ilmi, hadis manbalari, mashhur muhaddislarning ilmiy faoliyatini ochib berishda hamda sohadagi faoliyatni izchil davom ettirishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 5-iyuldagi “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-apreldagi PF-5416-son “Diniy-ma‘rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-son “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017-yil 23-iyundagi PQ-3080-son “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi

markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" nomli ustuvor yo'nalishiga muvofiq amalga oshirilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Rizouddin ibn Faxriddin ilmiy faoliyati hamisha dunyo miqyosida olimlar va tadqiqotchilar diqqat markazida bo'lgan. Rizouddin ibn Faxriddin hayoti, faoliyati va ilmiy merosi G'arb va Sharq olimlari tomonidan tadqiq etilib, bu bo'yicha ilmiy maqolalar e'lon qilingan.

Tatar olimlaridan: A.Xayrullin, R.Amirxan, R.Xakimov, M.X.Xasanov, M.G.Usmanov, M.Z.Zakiyev, I.K.Zaxidullin, M.I.Axmatjanov, R.Muxametshin¹ va boshqa olimlar olimning hayoti va ilmiy merosi haqida muhim ma'lumotlarni keltirib o'tgan. Turk olimlaridan: O.H.Ozalp, I.Turkog'lu, A.Alp, M.Demirchi, M.H.Qirbashog'lu² va boshqa olimlar tomonidan Rizouddin ibn Faxriddin hayoti va asarlarining qo'lyozma nusxalari bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan. O'zbekistonda T.Ziyoyev, I.Karimov, A.Xisomiddin va A.Nabiyev, M.Eshmuhammedova va S.Hasanov³lar tomonidan Rizouddin ibn Faxriddinning asarlari o'zbek tiliga tarjima qilingan.

¹ Хайруллин Ә. Гилимнең кулъязма мирасы. Казан утлари. – Казан: 1984. № 1. 157-162 б.; Равил Әмирхан. Р. Фахреддин мирасын барлау юлында. Ризаэддин Фәхреддин: мирасы һәм хәзерге заман. Фәнни конференция материаллары. – Казан: 2003 ел. 5-13 б.; Хакимов Р. Ижтимагый фикер хакиме. Ризаэддин Фәхреддин: мирасы һәм хәзерге заман. Фәнни конференция материаллары. – Казан: 2003 ел. 14-16 б.; Хәсәнов М.Х. Р. Фахреддин мирасы һәм татар дөнъясы. Ризаэддин Фәхреддин: мирасы һәм хәзерге заман. Фәнни конференция материаллары. – Казан: 2003 ел. 17-24 б.; Госмаһнов М.Г. Ризаэддин Фәхреддин мирасын өйрәнүдәге кайбер мөһим мәсьәләләр. Ризаэддин Фәхреддин: мирасы һәм хәзерге заман. Фәнни конференция материаллары. – Казан: 2003 ел. 24-32 б.; Зәкиев М.З. Ризаэддин Фахреддин һәм халкыбызның килеп чыгышы мәсьәләләре. Ризаэддин Фәхреддин: мирасы һәм хәзерге заман. Фәнни конференция материаллары. – Казан: 2003 ел. 55-76 б.; Заһидуллин И.К. Ризаэддин Фахреддин. Хөкүмәтнең XIX йөзнен икенче яртысындагы милли сәясәт (Риза Фахреддинов мисалында). Ризаэддин Фәхреддин: мирасы һәм хәзерге заман. Фәнни конференция материаллары. – Казан: 2003 ел. 55-76 б.; Әхмәтжанов М.И. Ризаэддин бине Фәхреддиннең нәсел шәжәрәсе һәм нәселе хақында. Ризаэддин Фәхреддин: мирасы һәм хәзерге заман. Фәнни конференция материаллары. – Казан: 2003 ел. 94-106 б.; Рафик Мухаметшин. Татары и ислам в XX века (ислам в общественной и политической жизни татар и татаристана). Казан: Фан, 2003. – 140 б.

² Ömer Nakan Özalp. Kazan la Istanbul Arasında Bir Alim Rızaeddin Bin Fahreddin. – Istanbul: Dergah Yayınları, 2010. 254 s.; Doç. Dr. İsmail Türkoğlu. Rızaeddin Fahreddin ve Türk Kimliği. Kazanlı Yenilikçi Âlimler Cilt 2. – Istanbul: 2014. 12-22 s.; Yard. Doç. Dr. Alper Alp. Rızaeddin Fahreddin'in Tarihçiliği. Kazanlı Yenilikçi Âlimler Cilt 2. – Istanbul: 2014. 23-36 s.; Yard. Doç. Dr. Metin Demirci. İdil-Ural Bölgesi Müslümanlarının Meşhur Müftüsü Rızaeddin Fahreddin'in Edebi Eserlerinin Dili. Kazanlı Yenilikçi Âlimler Cilt 2. – Istanbul: 2014. 37-130 s.; Prof. Dr. Mehmet Hayri Kırbaçoğlu. Rızaeddin Bin Fahreddin: Akıl İle Kalbi Birleştiren Adam. Kazanlı Yenilikçi Âlimler Cilt 2. – Istanbul: 2014. 131-174 s.

³ Rizouddin ibn Faxriddin. Ta'lim odobi (nashrga tayyorlovchi va tarjimon Ziyoyev T.). Sharq yulduzi jurnali. 1994. 3-4-sonlar. – T.: G'ofur G'ulom. 139-184 b.; Rizouddin ibn Faxriddin. Ahlu ayol. (Noshir Ilhomjon Karimov) – T.: Cho'lpon, 1994. 20 b.; Rizouddin ibn Faxriddin. Javome al-kalim. (Nashrga tayyorlovchi va tarjimonlar: Abdulloh qori Xisomiddin Xo'ja o'g'li va Nabiyev X.) – T.: Movarounnahr, 2004. 158 b.; Rizouddin ibn Faxriddin. Xulafoi roshidiyn. – T.: Kamalak nashriyoti. - 92 b.; Rizouddin ibn Faxriddin. Mashhur xotinlar. (Tarjimon va so'zboshi muallifi Eshmuhammedova M.) – T.: Navro'z, 2019. - 302 b.; Rizouddin ibn Faxriddin. Muhammad alayhissalom. (Tarjimon va so'zboshi muallifi Hasanov S.). – T.: Ijod, 1991. - 27 b.

“Kutubi sitta” majmuasini yorituvchi tadqiqotlarni quyidagi ikki guruhga ajratish mumkin:

Birinchi guruh “Kutubi sitta” majmuasini tadqiq qilgan *xorijlik* islomshunos va sharqshunos olimlarning tadqiqotlaridan iborat bo‘lib, unga A.Sprenger, I.Goldziher, N.R.Allen, J.Braun, A.Rippon, A.Z.Kumushxonaviy, X.A.Saharonpuriy, A.Muborakfuriy, M.A.Sh.Kashmiriy, M.F.Misriy, Z.A.Tahonaviy, S.Mehmet, M.M.Azamiy, A.Han va B.Totli⁴ kabi olimlarning asarlarida “Sihohi sitta” bo‘yicha ma’lumotlar uchraydi.

Ikkinchi guruhga mavzuga oid ilmiy izlanishlar olib borgan *mahalliy olimlar* sirasiga A.Azizxo‘jayev, U.Uvatov, B.Eshonjonov, U.Alimov, Sh.Boboxonov, I.Usmonov, D.Rahimjonov, D.Muratov, M.Alimova, A.Zohidiy, SH.Umarov, A.Tajiyev, N.To‘rayev⁵ kabilar kiradi. Ular tomonidan hadis ilmi, mashhur muhaddislar va “Sihohi sitta” to‘plamlari tadqiq etilib, dissertatsiya, monografiya, risola hamda maqolalar nashr etilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasida 2020-2022-yillarda bajarilgan FZ-

⁴ Alois Sprenger. The life of Mohammad from original sources. Presbyterian Mission Press, 1851. 134 p.; Ignaz Goldziher. Muhammedanische Studien. – Niemeer: Helle, 1890. – V. 2. 262 p.; Nikolson Reynold Allen. A literary history of the arabic. – London: 2010. 467 p.; Jonathan Brown. The canonization of al-Bukhari and Muslim. – Boston: Leide, 2007.; Andrew Rippon. Approaches to the history of the interpretation of the Quran. – USA: Gorgies press, 2013.; Ahmed Ziyâeddin Gümüşhânevî. Ramzul hadisi. – İstanbul: Meb Yay, 2021. 415 b.; Halil Ahmad as-Saharonpuriy Bazlul Majhudi fi halli Sunani Abu Dovud. - Bayrut: Dar al-bashar al-islamiyya, 2014. XIV jild. 9560 b.; Muborakfuriy. Tuhfat al-ahvaziy bi sharhi Jome’ at-Termiziy. – Bayrut: Dor al-fayha, 2011 XI jild. 7426 b.; Ahmad Shoh Kashmiriy. Fayz al-boriy ala Sahih al-Buxoriy. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya, 2005. VI jild. – 3765 b. Misriy. Jome’ al-masonid. – Qohira: Maktabat al-mutannabiy, 1941.; Ahmad at-Tahonaviy. E’lo as-sunan. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya, 2001.; Sufi o‘g‘lu Mehmet. Sahih Bukhari ve Tercümesi. – İstanbul: Meb Yay, I-XVI, 1987-1989.; Muhammed Mustafa el-A’zami. Hadis metodolojisi ve edebiyati. – İstanbul: Iz Yayincilik, 2015.; Abdurrahman Han. Kutubi sitta külliyesinde ibadet ve bilgi ilişkisi. Sokarya Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü, 2007.; Basri Tath. Kutubi Sitta’da İsrâ ve Mirâç ile ilgili hadisler. Marmara Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü, Temel İslam Bilimleri, İslami İlimler, Hadis Bilimi Anabilim Dalı, 2000.

⁵ Азизхўжаев А. Свет из глубни веков. – Т.: Шарқ, 1998.; Uvatov U. Alimov U. Imom al-Buxoriy barokati. – T.: Movarounnahr, 2007.; Uvatov U. Movarounnahr va Xuroson olimlarining hadis ilmi rivojida tutgan o‘rni (al-Buxoriy, Muslim, at-Termiziy): Tar. fan. dok. ... diss. Avtoref. – T.: TIU, 2002.; o‘sha muallif. Buyuk muhaddislar: Imom al-Buxoriy, Imom Muslim, Imom at-Termiziy. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 1998. – 63b.; o‘sha muallif. Donolardan saboqlar. – T.: Abdullar Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1994. – 94 b.; o‘sha muallif. Imom al-Buxoriy hayoti. – T.: 1998.; o‘sha muallif. Muhaddislar imomi. – T.: Ma’naviyat, 1998.; Eshonjonov B. IX asr Movarounnahr madaniy hayotida Imom al-Buxoriyning mavqei va uning al-Jome’ as-sahih” asaridagi fihiy masalalar: Tar.fan. nomz. ... diss. Avtoref. – T.: TIU, 2001.; Alimov U. Imom al-Buxoriy barakoti. – T.: Movarounnahr, 2007; o‘sha muallif. Sunnat va hadis. – T.: Sharq, 2012.; Imom al-Buxoriy. Al-adab al-mufrad (Adab durdonalari) / Tarjima, muqaddima va izohlar muallifi Boboxonov Sh. – T.: O‘zbekiston, 1990.; o‘sha muallif. Великие мухаддисы о мире и дрижбе между народами (из шест общепризнанных сборников). – T.: 1998.; Najmiddinov Z. “Sahih al-Buxoriy” roviylarining xorijda o‘rganilishiga qisqa nazar // Buxoroning jahon madaniyatidagi o‘rni. Respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiya materiallari. – Buxoro, 2020. – B. 186-191.; Usmonov I. al-Hakim at-Termiziyning “Navodir al-usul” asari hadis va tasavvuf ilmiga oid muhim manba. Tar. fan. nom. ... diss. – T.: TIU, 2005.; Rahimjonov D. Abu Hafs an-Nasafiyning “Kitob al-qandi fi ma’rifat ulamo Samarqand” asari – Samarqandda hadis ilmi tarixi bo‘yicha muhim manba. Tar. fan. nom. ... diss. – T.: TIU, 2003.; Muratov D. Abdulloh as-Subazmuniyning “Kashf al-osor” asari hadis ilmiga oid muhim manba: Tar. fan. nom. ... diss. – T.: TIU, 2008.; Alimova M. Imom ad-Dorimiyning hadis ilmiga qo‘shgan hissasi: Tar. fan. nom. ... diss. – T.: TIU, 2008.; Zohidiy A. Imom al-Buxoriy hadis ilmida tarixiy-tanqidiy usul asoschisi // O‘zbekiston ijtimoiy fanlar, N 12. Toshkent, 1998. – B. 20-22.; Umarov Sh. Abdulhamid Keshiy ilmiy merosining VIII-IX asrlar Movarounnahr hadis ilmi rivojida tutgan o‘rni: Tar. fan. fal. ... diss. – T.: TIU, 2018.; Tajiyev A. Hadislarning diniy aqidaparastlikka qarshi mohiyati: Tar. fan. fal. ... diss. – T.: O‘ZXIA, 2020.; To‘rayev N. Imom Buxoriyning “at-Tarix al-kabir” asari hadis ilmiga oid muhim manba: Tar. fan. fal. ... diss. – T.: O‘ZXIA, 2020.

202002146 – “Markaziy Osiyo mutafakkirlari asarlari asosida buzg‘unchi g‘oyalarga qarshi kurashning ma’rifiy, tarbiyaviy asoslarini o‘zida jamlagan multimedia dasturi hamda mobil ilovasini yaratish” mavzuidagi ilmiy loyiha doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi Rizouddin ibn Faxriddinning “Kutubi sitta va mualliflari” asari manbashunoslik ahamiyatini ochib berish.

Tadqiqotning vazifalari:

ishonchli hadis to‘plamlarini o‘rganishga doir tadqiqotlardagi o‘ziga xos yondashuvlarni tasniflash;

ma’rifatparvarlik harakatining ta’lim tizimida tutgan o‘rnini ko‘rsatib berish;
jadid taraqqiyparvarlarining hadislardan foydalanish usullarini ilmiy asoslab berish;

olim ilmiy merosining tarixiy ahamiyatini ochib berish;

Rizouddin ibn Faxriddinning ilmiy faoliyati va asarlarini tavsiflash;

“Kutubi sitta va mualliflari” asarining manbaviy asoslarini atroflicha yoritish;

“Kutubi sitta va mualliflari”ning toshbosma nusxalari asosida asarning tarkibiy tuzilishini ko‘rsatib berish;

“Kutubi sitta va mualliflari”da hadis ilmi shakllanish bosqichlarining yoritilish uslubini ochib berish;

Rossiya imperiyasi musulmonlarining hadis sohasi tarixini manbada aks etishini aniqlash hamda ular asosida taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Rizouddin ibn Faxriddin va uning “Kutubi sitta va mualliflari” asari olingan.

Tadqiqotning predmetini “Kutubi sitta va mualliflari” asarining toshbosma nusxalari, tarkibiy tuzilishi hamda undagi hadis ilmi shakllanish bosqichlari yoritilish uslubi tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada kompleks yondashuv, ilmiy bilishning dialektik, tarixiylik, mantiqiylik, analiz, sintez va qiyosiy tahlil kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

XX asr boshiga kelib, Rossiyadagi madrasalarda hadisshunoslik fanidan o‘quv adabiyoti yaratishga bo‘lgan intilish sababli Rizouddin ibn Faxriddinning “Kutubi sitta va mualliflari” (کتاب سته و مؤلفاری) asari yozilishiga va natijada Qozonda “Marjoniya”, Orenburgda “Husayniya” va Troitskda “Rasuliya” ta’lim dargohlarida ilk bor turkiy tilda yozilgan asosiy o‘quv qo‘llanmaga aylangani dalillangan;

“Kutubi sitta va mualliflari” asarida Rossiya musulmonlari ilm olish tarixi “Hayrat”, “Dog‘iston”, “Sxolastik” va “Intiboh” (uyg‘onish) nomli davrlarga bo‘lingani hamda ular orasida “Intiboh” davrida Movarounnahr madrasa (مدرسة)lari bitiruvchilari bo‘lgan ma’rifatparvarlar hadis ilmini keng yoyilishi hamda Qur‘on va sunnatni inkor qiluvchilarga qarshi kurashda asosiy tayanch vazifani bajarganligi isbotlangan;

manbada muhaddis Razin ibn Muoviya (vaf. 535/1140) tomonidan Ibn Mojjaning “Sunani ibn Mojja” asaridan ko‘ra Imom Molikning “Al-Muvatto”sida

sahih hadislar nisbatan ko‘pligi uchun “Sihohi sitta” to‘plamiga kiritilgani hamda yangi uslubdagi “At-tajrid as-sihoh as-sitta” (التجريد الصحاح الستة) nomli majmua shakllangani ochib berilgan;

Rizouddin ibn Faxriddin manbada Imom Nasoiy (الإمام النسائي)ning “Sunani Nasoiy”sida Abu Hanifadan rivoyat qilingan sahih hadislar asosida uni ishonchli roviylar qatorida alohida zikr etgani aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

Rizouddin ibn Faxriddinning faoliyati tarixiy va ilmiy manbalar asosida tadqiq etilib, u tomonidan yozilgan fiqh, pedagogika, tarix, hadisshunoslik sohalariga oid kitoblari, jumladan “Javome al-kalim” va olimlarning biografik ma’lumotlariga bag‘ishlangan ko‘p jildlik “Asar” nomli asarlari borligi aniqlangan;

Rizouddin ibn Faxriddin “Kutubi sitta va mualliflari” asarida sahobalardan keyingi roviylarning holi, ishonchliligi, adolati, zobti (bir narsani mahkam ushlab qolish), rivoyatning uzilmay yetib kelishiga ko‘ra hadislarini mutavotir, mashhur va ohodga taqsimlagan hanafiy ulamolarini qo‘llab-quvvatlagani isbotlangan;

“Kutubi sitta va mualliflari” asarining respublika va xorijda saqlanayotgan 10 ta toshbosma nusxalari aniqlanib, ular orasida Tatariston Fanlar akademiyasida № 509 inventar raqamli nusxasi 128 sahifadan iborat bo‘lib, mazkur nusxadan manbaning oxirgi qismida keltirilgan “Asarda nomlari keltirilgan kitob nomlari” deb atalgan qismi tushib qolganligi hamda kutubxonalarda saqlanayotgan 9 nusxasi 135 sahifa holida bizgacha yetib kelganligi dalillangan;

Rizouddin ibn Faxriddin “Kutubi sitta va mualliflari” asarini yozishda Qur’oni karim va hadisi shariflar bilan birgalikda 175 ta ilmiy-akademik manbalarga tayanganligi bilan XX asrda yozilgan hadisshunoslik sohasiga doir muhim kitoblardan biri ekani asarning manbashunoslik asoslari tadqiqi orqali ochib berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi “Kutubi sitta va mualliflari” asari O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti toshbosma fondida № 947, 948, 1017, 3853 inventar raqami ostida to‘rtta nusxasi, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasining manbalar xazinasida № 629 inventar raqami bilan bitta nusxasi, Tatariston Fanlar akademiyasi arxivida № 814, 1037, 121, 486, 509 inventar raqamli beshta nusxasi saqlanayotgani, dalillar bilan asoslangani, 2019-yilda nashr etilgan zamonaviy tatarcha nashriga tayanilgani, zamonaviy qiyosiy-tarixiy usullardan foydalanilgani hamda Sharq va G‘arb islomshunoslik maktablarida shakllangan qator ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanilgani, tadqiqot natijalarining vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda bayon etilgan Rizouddin ibn Faxriddinning “Kutubi sitta va mualliflari” asari hadisshunoslik sohasini o‘rganishda muhim manba ekanligi borasidagi ilmiy-nazariy xulosalar sohaga oid kelgusi ilmiy tadqiqotlarga asos bo‘lib xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida o‘qitiladigan “Islom tarixi va manbashunosligi”, “Hadisshunoslik”

va “Matnshunoslik” fanlar mazmunini yangi nazariy ishlanmalar bilan boyitishda, sohaga oid fakultativ darslar, seminar mashg‘ulotlari va maxsus kurslarni ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Rizouddin ibn Faxriddin “Kutubi sitta va mualliflari” asari manbashunoslik tadqiqi bo‘yicha tadqiqotning ilmiy-nazariy natijalari asosida:

XX asr boshiga kelib, Rossiyadagi madrasalarda hadisshunoslik fanidan o‘quv adabiyoti yaratishga bo‘lgan intilish sababli Rizouddin ibn Faxriddinning “Kutubi sitta va mualliflari” (كتب سته و مؤلفرى) asari yozilishiga va natijada Qozonda “Marjoniya”, Orenburgda “Husayniya” va Troitskda “Rasuliya” ta’lim dargohlarida ilk bor turkiy tilda yozilgan asosiy o‘quv qo‘llanmaga aylangani dalillangani borasidagi ilmiy xulosalari “Sharq mutafakkirlarining ilmiy merosi”, “Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati, diniy an‘ana va urf-odatlari” nomli darslik va o‘quv qo‘llanmalarning mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mitaning 2023-yil 15-iyundagi 02-02/1-4739-son ma’lumotnomasi). Natijada, talabalarda “Kutubi sitta va mualliflari” asari hadisshunoslik sohasiga oid asosiy manbalardan ekani to‘g‘risida tasavvur hosil qilish imkonini bergan;

“Kutubi sitta va mualliflari” asarida Rossiya musulmonlari ilm olish tarixi “Hayrat”, “Dog‘iston”, “Sxolastik” va “Intiboh” (uyg‘onish) nomli davrlarga bo‘lingani hamda ular orasida “Intiboh” davrida Movarounnahr madrasa (مدرسة)lari bitiruvchilari bo‘lgan ma’rifatparvarlar hadis ilmini keng yoyilishi hamda Qur‘on va sunnatni inkor qiluvchilarga qarshi kurashda asosiy tayanch vazifani bajarganligini isbotlovchi ilmiy xulosalar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi buyurtmasi asosida tayyorlangan “O‘rta asr sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy-falsafiy merosi” nomli kitobi mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining 2023-yil 8-iyundagi 02/273-son ma’lumotnomasi). Natijada, Rossiyaning shimoliy hududlaridagi hadis ilmi tarixi borasidagi ma’lumotlar ilmiy jamoatchilikka yetib borishiga xizmat qilgan;

manbada muhaddis Razin ibn Muoviya (vaf. 535/1140) tomonidan Ibn Mojjaning “Sunani ibn Mojja” asaridan ko‘ra Imom Molikning “Al-Muvatto”sida sahih hadislar nisbatan ko‘pligi uchun “Sihohi sitta” to‘plamiga kiritilgani hamda yangi uslubdagi “At-tajrid as-sihoh as-sitta” (التجريد الصحاح الستة) nomli majmua shakllangani ochib berilganini isbotlovchi ilmiy xulosalar Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tomonidan tayyorlangan “Sunani Termiziy sharhi” kitobining mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston musulmonlari idorasining tasarrufidagi Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining 2023 yil 12-iyundagi 01-07/87-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, Rizouddin ibn Faxriddin tomonidan muhaddis va mujtahid olimlar tadqiq qililib, ulardan ko‘p hadislar rivoyat qilinganligini ochib berishga xizmat qilgan;

Rizouddin ibn Faxriddin manbada Imom Nasoiy (الإمام النسائي)ning “Sunani Nasoiy”sida Abu Hanifadan rivoyat qilingan sahih hadislar asosida uni ishonchli

roviylar qatorida alohida zikr etgani aniqlangani buyurtma asosida tayyorlangan “O‘zbekiston tarixi” telekanalida efirga uzatiladigan “Buyuk yurt allomalari” ko‘rsatuvi ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasining 2021-yil 31-maydagi 02-10-865-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, ahli hadislar tomonidan hadislarni qabul qilib olishdagi shartlari orqali islom tarixiga asos solinganligi ochib berilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari jami 13 ta – 2 ta xalqaro va 11 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida aprobatsiyadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha 23 ta ilmiy ish, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 10 ta maqola, ulardan 8 tasi respublika va 2 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 123 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslanib, tadqiqotning maqsad va vazifalari, o‘rganish obyekti va predmeti aniqlangan. Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilib, ishning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan. Olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan holda ularning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, ishning aprobatsiyasi, natijalari, e‘lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **XIX asr oxiri – XX asr boshlarida “Kutubi sitta” majmuasini tadqiq etishning metodologik asoslari** nomli birinchi bobining ilk bandi “*Ishonchli hadis to‘plamlarini o‘rganishga doir tadqiqotlardagi o‘ziga xos yondashuvlar*” deb atalgan. Unda XIX-XX asrlarda “Kutubi sitta”ga oid G‘arb, Sharq hamda O‘zbekistonda amalga oshirilgan tadqiqotlardagi yondashuvlar ochib berilgan. G‘arbda hadis ilmi, sanadlar, muhaddislar hollari va “Kutubi sitta”ga oid ma’lumotlar Villiam Muir (1819-1905), Alois Sprenger (1813-1893), Yulius Vellgauzen (1844-1918), Ignaz Goldziher (1850-1921), Nikolson Reynold Allen (1868-1945), Jonatan Braun (1977) va Robert Martson Speit (1924-2011) kabi g‘arb sharqshunos va islomshunos olimlarining kitoblarida keltirilgan. Ignaz Goldziher tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotda “Kutubi sitta”ning ishonchsiz ekanligi borasida keltirgan fikrlari ilmiy asosga ega bo‘lmay, majmua tarkibidagi asarlarning mualliflari bo‘lmish muhaddislarning hadis qabul qilishda o‘ta qattiq va o‘z davri uchun mukammal tartibga rioya qilganligiga yetarli va xolis baho berilmaganligi asoslangan.

Sharqda Ahmad Ziyovuddin Kumushxonaviy (1813-1893), Xalil Ahmad Saharonpuriy (vaf. 1346/1927), Abdurahim Muborakfuriy (vaf. 1354/1935), Muhammad Anvar Shoh Kashmiriy (vaf. 1352/1933), Muhammad Fuad Misriy (vaf. 1382/1962), Zafar Ahmad Tahonaviy (vaf. 1394/1974), So'fi o'g'li Mehmet (vaf. 1408/1987), Muhammad ibn Mustafo A'zamiy (vaf. 1438/2017), Abdurahmon Han va Basriy Totli kabi olimlar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarning asosiy maqsadi "Kutubi sitta" to'plamlarini himoya qilish va uning avvalgi mavqeini tiklash bo'lgan. Mazkur tadqiqotchilar tomonidan "Kutubi sitta" to'plamining turli jihatlarini tadqiq qilishga bo'lgan urinishlarning qiymatini tushirmagan holda "Kutubi sitta" majmuasining haligacha tizimli va kompleks tarzda o'rganilmaganligi, uning hadis ilmi, islom tarixi hamda boshqa islom ilmlari va ijtimoiy fanlarga doir manba sifatidagi ahamiyati to'liq yoritib berilmagan.

O'zbekistonda "Kutubi sitta" doirasida amalga oshirilgan tadqiqotlarga: Ubaydulla Uvatovning "Movarounnahr va Xuroson olimlarining hadis ilmi rivojida tutgan o'rni" nomli dissertatsiyasi hadis ilmining tarixiy istilohlari, Imom Buxoriy, Muslim ibn Hajjoj hamda ularning hadis ilmi rivojida tutgan o'rni, Abu Iso Termiziy va uning ilmiy-ma'naviy merosi kabi mavzularni qamrab olgan. Ushbu dissertatsiyaning e'tiborli jihati shundaki, dissertatsiya mustaqillikning ilk o'n yilliklarida yozilgan bo'lib, mustamlaka istibdodi ta'sirida o'z ma'naviy-madaniy merosidan uzoqlashtirilgan millatimiz uchun katta xizmat qilgan. Rahimjonov Durbekning "Abu Hafs Nasafiyning "Al-qand fi zikri ulamoi Samarqand" asari Samarqand hadis ilmi tarixi bo'yicha muhim manba" tadqiqotida islom tarixi manbashunosligi bo'yicha hadislarning Samarqandga kirib kelishi tadqiq qilingan. Bundan tashqari, I.Usmanov, M.Alimova, D.Muratov, O.Davlatov, Sh.Umarov va N.To'rayev dissertatsiyalarida hadis ilmi bilan bog'liq bo'lgan masalalar o'z aksini topib, ularda "Kutubi sitta" to'plamlariga oid ma'lumotlar ham keltirilgan.

"Ma'rifatparvarlik harakatining ta'lim tizimida tutgan o'rni" deb nomlangan ikkinchi bandda Rossiya musulmonlari, jumladan Tatariston va Turkiston mintaqalaridagi ma'rifatparvarlik harakatida ta'lim islohotlari o'rganildi. Shahobiddin Marjoniy (1818-1889), Husaynixon Fayzxoniy (1821-1866), Qayum Nosiriy (1825-1902), Zaynulloh Rasuliy (1833-1917), Fotih Karimiy (1870-1937), Muhammad Zohir Begiyev (1870-1902), Shamsiddin Qultoshiy (1856-1930), Abdurashid Ibrohim (1857-1944), Ismoil Gaspirali (1851-1914), Rizouddin ibn Faxriddin (1858-1936), Abdurauf Fitrat (1886-1938) va Mo'minjon Muhammadjonov (1883-1964) kabi ziyolilar ta'lim tizimidagi islohotlarni o'zlarining oliy maqsadi qilib belgilab olgan hamda mazkur maslakni o'zlarining davriy matbuotlaridagi maqolalari va asarlari vositasida namoyon qilgan. Ma'rifatparvarlar tomonidan ilgari surilgan g'oyalar: madrasalarda o'qitiladigan hoshiya va sharh kabi fanlar dars jadvallaridan olib tashlanishini; Qur'oni karim, hadis, ularning tarjimalari va islom tarixi kabi fanlar o'qitilishini; arifmetika, tarix, jo'g'rofiya, tabobat, handasa, mantiq, falsafa va boshqa dunyoviy fanlarni o'qitishga qarshilik ko'rsatilmasligini; madrasa darslari aniq bir jadval va tartib asosida qayta isloh qilinishi kabilarni qamrab olgan.

Abdurauf Fitrat “Hindistonda bir farangi ila buxorolik mudarrisning jadid maktablari xususida qilg‘on munozarasi” asari (qisqacha “Munozara”) va “Hind sayyohi bayonoti” kabi asarlari orqali ta‘lim olishda zamonaviy ilm-fanga ergashish lozimligini isbotlash bilan birga, o‘zga din vakillarining ilmlaridan bahramand bo‘lish musulmonlarning e‘tiqodiga zarar keltirmasligini isbotlab bergan. Mo‘minjon Muhammadjonovning “Bizda muallimlar” nomli maqolasida har bir millatning taraqqiy etishi pul hamda usuli ta‘limdan xabardor muallimlarga borib taqalishini va agar pul bo‘lmaydigan bo‘lsa, maktablarning moddiy, texnik bazasi zavolga yuz tutishini aytib o‘tgan hamda u boshqa tomondan muallimlar zamonga munosib bo‘lgan ilm-ma‘rifatga ega bo‘lmasalar, usuli ta‘limdan hech qanday naf chiqmasligini qayd etgan.

Birinchi bobning “*Jadid taraqqiyparvarlarining hadislardan foydalanish usullari*” nomli uchinchi bandida Qozon, Kavkaz va Turkistondagi azaldan chuqur ildiz otgan islomiy qadriyatlarni hisobga olgan holda, ushbu o‘lkalardagi musulmonlarga islom dinining asosiy manbalari bo‘lmish Qur‘on va hadislar vositasida insonlarni ratsional tafakkurga undovchi ilmlarni o‘rganishga da‘vat etgan taraqqiyparvarlarning ilmiy meroslaridagi hadislardan foydalanish uslublari ochib berilgan. Bunda Rizouddin ibn Faxriddin, Mahmudxo‘ja Behbudiy (1875-1914), Abdulla Avloniy (1878-1934), Munavvarqori Abdurashidxonov (1878-1931), Abdurauf Fitrat (1886-1938) va G‘oziy Yunus (1887-1942)larning ilmiy meroslaridagi hadislardan foydalanish uslublari murojaat qilingan.

Rizouddin ibn Faxriddin “Oila”, “Namunali axloq”, “Ahlu ayol”, “Tarbiyali ota”, “Tarbiyali ona”, “Tarbiyali xotin”, “Tarbiyali bola”, “Nasihat” (bolalar uchun), “Nasihat” (qiz bolalar uchun), “Nasihat” (balog‘atga yetganlar uchun), “Ilm olish odoblari”, “Shogirdlik odobi” kabi risolalarida hadislardan foydalangan holda musulmon kishining kamolotida axloqning o‘rni va rolini yoritib bergan. Mahmudxo‘ja Behbudiy “Daf‘i taarruz va shubha ajnabiy taomi haqinda” nomli maqolasida, Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq” deb atalgan asarida, Munavvarqori Abdurashidxonov “Nikoh to‘g‘risida” nomli maqolasida, Abdurauf Fitrat ham o‘zining “Oila”, “Hindistonda bir farangi ila buxorolik mudarrisning jadid maktablari xususida qilg‘an munozarasi”, “Hind sayyohi bayonoti” hamda “Najot yo‘li” kabi asarlari va boshqa qator maqolalarida, G‘oziy Yunus “Al-ulamo varasat al-anbiyo” nomli maqolasida hadislardan foydalanganligi asoslab berilgan. Jadidlar ilmiy merosining tahlili natijasiga ko‘ra, ular hadislardan quyidagi uslublari orqali foydalangan: Taraqqiyparvarlar Imom Buxoriyning “Sahihi Buxoriy” va Imom Muslimning “Sahihi Muslim” to‘plamlaridagi hadislaridan o‘z kitoblarida iqtiboslar keltirishgan; jadidlar avval muammoli masalani keltirib, unga yechim sifatida hadislarini ishlatgan; hadislar qo‘llanilishida boblarning matn bayoniga qo‘shilib qo‘llanilgan; hadislar - ma‘lum bir mavzu yoritilganda o‘quvchi asarni oson tushunib olishligi uchun asosiy mazmun sifatida olingan; jadidlar ilm haqidagi asarlari va maqolalarida hadislardan germenevtik va strukturaviy metodlar orqali istifoda qilgani namoyon bo‘lgan.

Dissertatsiya tarkibidagi “**Rizouddin ibn Faxriddinning “Kutubi sitta va mualliflari” asari tayanch manbalari**” nomli ikkinchi bobning birinchi bandi

“Olim ilmiy merosining tarixnavisligi” deb nomlangan bo‘lib, unda Rizouddin ibn Faxriddin ilmiy merosini o‘rganishning tarixshunoslik asoslari tadqiq etilib, asosan, uch yo‘nalishdagi manba va adabiyotlarga tayangan holda ochib berilgan. Turk olimlaridan Abdulloh Battal Taymas, Ismoil Turko‘g‘lu, Doktor Alpar Alp, Omar Haqan Ozlap, Metin Demirchim, Mehmet Hayri Qirboshio‘g‘lu, Bunyamin Erul, Turgay Anar, O‘zkan O‘zturk, Marat Kashafuttinov va Ilyas Miftaxov kabi tadqiqotchilarning ishlarida Rizouddin ibn Faxriddin ilmiy merosiga bir tarafdin jadid sifatida, ikkinchi tomondan islom ulamosi sifatida qarash sezilib turadi. Shunga qaramasdan, turk tadqiqotchilarining ko‘pchiligi Rizouddin ibn Faxriddin ijodiy merosini va uning islom ilmlariga oid asarlarini o‘rganishda turkumlashgan va biografik ma‘lumotlarga tayangan holda yondashish lozimligini ta‘kidlashgani asoslangan.

Yuqoridagi tadqiqotchilar orasida Takirdag‘ Namik Kamal universiteti doktori O‘zkan O‘zturkning *“Idil-Ural olimlaridan Rizouddin ibn Faxriddinning Ibn Arabiyga bahosi”* nomli maqolasi avvalida Rizouddin ibn Faxriddinning yashagan davrdagi islohotchilik harakati va uning gazetalardagi faoliyati yoritilgan. O‘zkan O‘zturk Rizouddinning Ibn Arabiyga bo‘lgan munosabatini tahlil qilar ekan, uning tasavvufiy bilimlariga yuksak baho beradi. Shuningdek, O‘zkan O‘zturk Rizouddinning Ibn Arabiy qalamiga mansub asarlari tahlili, fiqhiy tushunchalari, islomiy bilimlari, tasavvufiy qarashlari haqidagi fikrlarini boshqa manbalar bilan solishtirgan holda qiyosiy o‘rgangan. Bundan tashqari, maqolada Rizouddin Ibn Arabiyga nafaqat islom olimi, balki faylasuf sifatida baho bergani ham uning ilmiy merosidagi eng e‘tiborli jihatlardan biri sifatida tadqiq qilingan.

Tataristonlik tadqiqotchilardan B.L.Faritova, A.A.Karabullin, X.A.Yurevich, Yu.A.Bilalovna, G.A.Aleksandrovich, I.R.Lutfulloveh, X.S.Mirsadirovich, K.R.Xadimovich, R.Mardonof, R.Minnullin, S.Rahimov, F.M.Nurulloevich va I.K.Zagudillin kabi olimlar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarning asosiy xususiyati shundaki, ularda Rizouddin ibn Faxriddin ilmiy merosi tarixiylik metodi orqali tadqiq qilingan. Tadqiqotlarda olim yaratgan ilmiy-ijodiy maktab tatar xalqining milliy g‘ururi, madaniy merosi va islohotchi sifatida talqin qilinganini ko‘rish mumkin. Shuningdek, Rizouddin ibn Faxriddinning merosi O‘zbekiston ilmiy muhitida ham o‘z o‘rniga egadir. Jumladan, Rizouddin ibn Faxriddinning *“Ta‘lim odobi”* asari T.Ziyoyev, *“Ahlu ayol”* kitobi I.Karimov, *“Javome’ ul-kalim”* asari Abdulloh qori Xisomiddin Xo‘ja o‘g‘li va A.Nabiyev, *“Mashhur xotinlar”* M.Eshmuhamedova, *“Muhammad alayhissalom”* kitobi S.Xasanovlar tomonidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan.

“Rizouddin ibn Faxriddinning ilmiy faoliyati va asarlari tavsifi” deb nomlangan ikkinchi bandda Rizouddin ibn Faxriddinning hayot yo‘li, uning ajdodlari, u yashagan davrda ijtimoiy muhit, olimning tafakkur tizimi shakllanishi bosqichlari hamda ilmiy merosi yoritilgan. Tadqiqot jarayonida, Rizouddin ibn Faxriddinning *“Al-asrul jadid”* (Yangi asr), *“Vaqt”*, *“Sho‘ro”*, *“Tarjimon”*, *“Sharqi rus”* va boshqa bir qator gazeta-jurnallarda maqolalari bilan ishtirok etganligi hamda olim *“Vaqt”* jurnalining ilk soni (1905)dan e‘tiboran maqola yozib, ushbu

gazatega berib borgani, bu davrda yozgan maqolalariga ba'zan o'z ismini, ba'zan esa "Yo'ldosh", "Murod" kabi tahalluslarini qo'yib ijod qilgani asoslab berilgan.

Rizouddin ibn Faxriddin ilmiy faoliyati davomida arab va turk tillarida ijod qilgan: Alisher Navoiy (1441-1501), Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530), Fuzuliy (1494-1556), Mahmud Abdubodiy (1526-1600), Abulg'ozil Bahodirxon (1603-1663), Kotib Chalabiy (1609-1657), Avliyo Chalabiy (1611-1683), Naima (1655 - 1716), Shayx G'olib (1757-1799), Javdat Poshsho (1823-1895), Ahmad Midhat (1844-1912), Shamsiddin Somiy (1850-1904), Jurjiy Zaydon (1861-1914) kabi olimlarning ijod namunalari bahramand bo'lgan.

Rizouddin ibn Faxriddin o'zining qozilik va muftiylik faoliyati davomida fiqhda Abu Hanifaga, aqidada moturidiylikka ergashganini "Mansabi diniyya" asarida: Jamoliddin Afg'oni haqida yoza turib, uning Shahobiddin Marjoniy kabi mo'tadil ahli sunna val jamoa ulamolari kabi fikrlamaganidan afsusda ekanligini qayd etadi; Rizouddin ibn Faxriddin fiqhiy hukmlarni huddi hanafiy ulamolari kabi Qur'oni karim, hadis, ijmo, qiyos va istehsonga bo'lgan; olim: "O'lkamizda faoliyat ko'rsatayotgan har bir imom hanafiy mazhabi bo'yicha fatvo ishlarida Marg'inoniyning "Al-Hidoya" asariga suyanishi lozimdir. Barcha din ishlari vakillari ushbu kitobni bilishlari shartdir"; "Men o'zim ota va onam o'rganganlaridek Abu Hanifaning mazhabidaman", deb zikr qilgan.

Rizouddin ibn Faxriddin 1908-yildan boshlab "Sho'ro" jurnalining asoschisi va bosh muharriri sifatida faoliyat olib borgan. Jurnal 10 yil davomida 239 ta sonda nashr qilingan. Jurnalda 4085 ta maqola, she'r, o'quvchilarning savol-maktublari, hikoya, latifa va boshqa ko'plab materiallar chop etilgan. Bulardan 1380 tasi adabiy, 953 tasi ijtimoiy, 545 tasi tarix, 415 tasi ta'lim, 307 tasi til, 146 ta falsafa, 146 tasi fan, 92 tasi matbuot, 63 tasi san'at, 39 tasi iqtisodga doir maqolalar edi. Bu maqolalarning 3000 ga yaqini turk dunyosining adabiy, tarixiy hamda ijtimoiy hayotiga oid maqolalar hisoblangan. Shuningdek, Rizouddin ibn Faxriddin "Javome al-kalim", "Kutubi sitta va mualliflari", "Tarbiyali ona", "Shogirdlik odobi", "Oila", "Mashhur xotinlar" kabi 14 ta qo'lyozma va 70 ta toshbosma asarlar hamda 410 dan ortiq maqolalarni meros qilib qoldirgan.

Ikkinchi bobning "Kutubi sitta va mualliflari"ning manbaviy asoslari tahlili" deb nomlangan uchinchi bandida Rizouddin ibn Faxriddinning "Kutubi sitta va mualliflari" asari manbaviy asoslari o'rganildi. "Kutubi sitta va mualliflari" asariga asos bo'lib xizmat qilgan manbalar quyidagicha tasniflandi:

1. Qur'oni karim oyatlari bo'lib, Rizouddin ibn Faxriddin asardagi mavzularning mohiyatini chuqurroq ochib berish maqsadida Qur'on oyatlaridan foydalangan. Asarda, Qur'onning Toha surasi 25-28-oyatlari, An'om surasi 164-oyati, Oli Imron surasi 31-oyati qo'llanilishi asarda keltirilgan masalalarni tushunarli qilib yoritilishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

2. Manbalarda keltirilgan hadis ilmiga oid rivoyatlar "Kutubi sitta va mualliflari" asarida ilmiy muloqotga kiritilib, mazkur ilmni rivojlantirishga xizmat qilgan. Jumladan:

نَضَرَ اللَّهُ أَمْرًا سَمِعَ مِنَّا شَيْئًا، فَبَلَّغَهُ كَمَا سَمِعَهُ قَرَبٌ مُبَلِّغٍ أَوْ عَى مِنْ سَامِعٍ

Bizdan ne narsani eshitgan bo'lsa uni o'shanday boshqa bir kishiga yetkazgan insonni Alloh yorlaqasin;

اَكْتُبُوا لِأَبِي فَلَانَ - "Falon hadisni yozib olinglar" kabi hadislar asarning mazmunini ochib berishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

3. "Kutubi sitta va mualliflari" da nomlari keltirilgan va foydalanilgan kitoblar ham asarning manbaviy asoslarini tashkil qiladi.

Yusuf ibn Abdulloh ibn Abdulbarning "Al-istiab fi ma'rifat al-asxab" (الاستيعاب في معرفة الأصحاب), Suyutiyning "At-tahafat as-saniya fil-ahadis al-qudusiya (التحافات السنية في الأحاديث القدسية), Imom Buxoriyning "Al-adab al-mufrad", Muhammad ibn Darveshning "Asniy al-mutolib fi ahadis muxtalafa al-murotib" (أسنى المطالب في أحاديث مختلفة المراتب), Hamid ibn Muhammad Xattobiyning "Ulum al-hadis fi sharhi Sahih al-Buxoriy (علوم الحديث في شرح صحيح البخاري), Muhammad ibn Tohirning "Al-Jome' bayna kitabi Abi Nasr al-Kalaboziy va Abiy Bakr al-Isfahoniy" (الجامع بين كتابي أبي نصر الكلاباذي وأبي بكر الأصبهاني), Ahmad ibn Abdullohning "Xulosotu tazhiyb tahziyb al-kalom fi asma'i ar-rijol" (خلاصة تذهيب تهذيب الكلام في أسماء الرجال) kabi asarlar kitobning bob va fasllarida keltirilgan mavzularni yoritib berishga hizmat qilgan. "Kutubi sitta va mualliflari" asarida nomlari zikr qilingan va iqtibos keltirilgan kitoblar soni umumiy qilib hisoblanganda 175 tadan iborat bo'lgan. Bu esa, Rizouddin ibn Faxriddin mazmunan boy, ilmiy ma'lumotlarni o'zida mujassam qilgan "Kutubi sitta va mualliflari" asarini ilmiy-nazariy asoslarga tayangan holda qiyosiy va tanqidiy uslubda tizimli yozganligini ko'rsatadi.

4. "Kutubi sitta va mualliflari" da mo'tabar olimlarning nomlarini zikr qilinishi asarning yozilishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan jihatlardan biri deyish mumkin. Asarda 136 ta olimlar qayd qilingan bo'lib, ular: Yaxyo ibn Main, Abd ibn Humayd, Abdulg'ani al-Bahroni kabilardir. Ular turli soha vakillari: muhaddis, faqih, tafsirshunos, tarixchi, arab tili filologi, tasavvuf, geograf, tarjimai hol asarlar mualliflari, mazhab egalari bo'lib, ulardan muhaddislar - 79 ta, faqihlar - 26 ta, tafsirshunoslar - 9 ta qolganlari boshqa soha vakillari hisoblangan.

Tadqiqotning uchinchi bobi "**Kutubi sitta va mualliflari**" asarining **manbashunoslik tadqiqi**" deb nomlanib, uning birinchi bandi "*Kutubi sitta va mualliflari*" asarining toshbosma nusxalari va tarkibiy tuzilishi" deb atalgan. Mazkur bandda "Kutubi sitta va mualliflari" asarining O'zbekiston va Tataristondagi toshbosma nusxalari hamda tarkibiy tuzilishi ochib berilgan. Rizouddin ibn Faxriddinning "Kutubi sitta va mualliflari" asari 1910-yilda Orenburgdagi "Vaqt" nashriyotida chop etilgan. Asarning O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti toshbosma fondida №. 947, 948, 1017, 3853 inventar raqami ostida, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasining manbalar xazinasida №. 629 inventar raqami bilan Tatariston Fanlar akademiyasi arxivida №. 814, 1037, 121, 486, 509 inventar raqamli jami 10 ta toshbosma nusxasi saqlanmoqda. Kitob 135 varoq va har sahifasi 15-20 satrdan iborat.

Rizouddin ibn Faxriddin asarni an'anaviy, tanqidiy, tahliliy va qiyosiy uslublardan foydalangan holda yozgan. Asarning kirish qismida an'anaviy basmala

– “Rahmon va Rahim bo‘lgan Alloh nomi bilan” iborasidan so‘ng رَبِّ اشْرَحْ لِي صَدْرِي وَيَسِّرْ لِي أَمْرِي وَاحْلُلْ عُقْدَةً مِنْ لِسَانِي يَفْقَهُوا قَوْلِي “*Ey Robbim, mening qalbimni keng qil. Mening ishimni oson qil. Tilimdagi tugunni yechgin. So‘zimni anglasinlar*” (Qur‘on: Toha surasi, 25-28) oyatlari keladi. “Kutubi sitta va mualliflari” asari olti qismga: hadyam, kirish, boblar, xotima, fihrist, ilovalarga bo‘linib ochib berilgan.

Birinchi qism – hadyamda Rizouddin ibn Faxriddin “Kutubi sitta va mualliflari” asarini yozishdan maqsadini bayon qilgan.

Ikkinchi qism – kirishda asarning qanday tartibda tuzilishi: “Kutubi sitta (Olti ishonchli to‘plam) va ularning mualliflari” haqida gapirishdan oldin qisqa tarzda: “Hadis” ilmi haqida biroz bo‘lsa-da, bahs etishga hojat bor. Zero “Hadis” ilmi to‘g‘risida bo‘lgan bu bahslar bilan tanishib chiqilmaydigan bo‘lsa, olti ishonchli to‘plam va ularning mualliflari xususida yozilgan narsalardan umid qilganimizcha foyda ololmaymiz. Shuning uchun bu o‘rinda bir necha boblarga bo‘lib hadis ilmi haqida quyida muxtasar suratda bo‘lsa-da, bir qadar bahslar yoziladi” kabi mulohazalar bilan boshlangan. Kirish qismining so‘ngida “Amallar niyatlarga ko‘radir. Har kimga niyat qilganigina bo‘ladi” hadisi sharifi keltiriladi.

Uchinchi qism – boblar bo‘lib, asar XX bob va o‘n uch fasldan tarkib topgan. Asarning “Hadis va sunnat, ularning yozilishi” deb nomlanuvchi ilk bobi asosan hadis ilmining fazilati haqida bayon etilgan. Ushbu bobda, Qur‘oni Karimdan keyingi ikkinchi manba sifatida “*hadis va sunnat*”, hadislarning bizgacha etib kelishi va yozib olinishi, hadislarning turlari: *xabari mutavotir, xabari mashhur va xabari ohod* kabi ma‘lumotlar beriladi.

To‘rtinchi qism – asarning xotimasi bo‘lib, Qur‘oni karim va hadisi shariflar naqadar kerakli ilm ekanligi va bu xususda Rasululloh (s.a.v.)dan hadislar orqali misollar keltirilib, “Kutubi sitta va mualliflari” asariga xulosa qilingan.

Beshinchi qism – asarning fihristi ya‘ni mundariyasi bo‘lib, unda hadyamdan boshlab xotimagacha bo‘lgan mavzular va fasllar qaysi betda joylashganligi yozilgan.

Oltinchi qism – ilovalar bo‘lib, u uch fasldan tarkib topgan. Birinchi faslda, asardagi nashr jarayonida xato bosilgan so‘zlar va ularning to‘g‘ri shakli, ikkinchi faslda, kitobda nomlari keltirilgan kishilarning ismlari, uchinchi faslda, manbada zikr qilingan kitoblar nomlari keltirilgan.

